



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## TILSHUNOSLIKDA SO'Z O'ZLASHTIRISH HODISASINING NAZARIY ASOSLARI

Sharipov Ziyod Zafar o'gli

*Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktorant*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179557>

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda tilshunoslikdagi so'z o'zlashtirish hodisasi va uning nazariy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, so'z o'zlashtirishning bosqichlari, so'z o'zlashtirish jarayonida tilning turli sathlarida yuzaga keladigan morfologik, semantik va leksik o'zgarishlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zlashma, semantik o'zgarish, anglisizm, madaniy aloqalar, selektiv o'zlashma, dialectal o'zlashtirish.

**Kirish.** Boshqa tillardan so'z olish har doim har qaysi tilda mavjud bo'lib kelyaotgan muhim lingvistik hodisalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa hozirgi kunda, zamonamiz jadal rivojlanayotgan, texnologiya hayotimizning bir bo'lagiga aylanib ulgurgan davrda xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar so'z o'zlashtirish hodisasini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. So'z o'zlashtirish - tilda mavjud bo'lgan bir so'zning boshqa tilga o'tishi bilan bog'liq lingvistik jarayondir. Hozirgacha tilshunoslar ushbu o'zlashma so'zlarning fonetik, semantik, leksikologik, kulturologik jihatlarini o'rganishning dolzarbligini ta'kidlashadi. Jumladan, rus tilshunosi L.L. Nelyubin tomonidan ko'rsatilganidek, lingvistik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bu tilni qarindoshlik darajasidan qat'i nazar solishtirish, o'xshashliklarni va farqlarni aniqlashdir. So'z o'zlashtirish tillar orasida mavjud bo'lgan aloqa fenomenining natijasi sifatida qaraladi. Bu biron bir tilga boshqa bir tildan so'zning kirib kelishi yoki ma'lum bir elementlarning qo'llanilishini o'z ichiga oladi. So'z o'zlashtirish quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1. Lug'at boyligini boyitish: Boshqa tillardan o'zlashtirib olish o'zlashtirilgan tilning so'z boyligini boyitib, tushuncha va g'oyalarni ifodalashning yangi usullarini ta'minlaydi.

2. Muloqotni osonlashtirish: O'zlashma so'zlar turli tillar va madaniyatlarda so'zlashuvchilar o'rtasida, ayniqsa fan, texnologiya va biznes kabi sohalarda muloqotni osonlashtirishi mumkin.

3. Madaniyatning globallasuvi: chet tillardan so'z va iboralarni qabul qilish global madaniyatning ta'sirini aks ettirishi va madaniyatlararo almashinuvni rivojlantirishi mumkin.

4. Ijodkorlik va innovatsiya: O'zlashma so'zlarni qabul qiluvchi tilga moslashtirish yangi so'zlarning yaratilishiga olib keladi va aynan o'sha tilda



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

ijodkorlik va innovatsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, tilning umumiy xususiyatlari va undagi universal hodisalar o'rganiladi, bu esa umumiy lingvistik tadqiqotlar uchun katta ahamiyatga ega. Avvalo "o'zlashma" va "anglisizm" tushunchalarining mazmunini aniqlab olish zarur, chunki bu tushunchalar ilmiy adabiyotda turlicha talqin qilinadi. Masalan, olim L. tomonidan "o'zlashma" atamasi til o'zgarishlarining cheklangan turi sifatida tushuniladi va u quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) madaniy ta'sir natijasida yuzaga keladigan o'zlashma;
- 2) ichki o'zlashtirish jarayoni;
- 3) selektiv o'zlashma.

L. Blumfeldning talqiniga ko'ra esa "o'zlashma"ni til o'zgarishlarining muayyan turi va uni quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) madaniy tushunchalarning o'zlashuvi; 2) "ichki" o'zlashtirish; 3) dialektal o'zlashtirish.

Ko'pgina tilshunoslarining fikriga ko'ra, "o'zlashtirish" ko'p qirrali tushunchadir. Uning keng ma'nosi bo'yicha "o'zlashma" va "xorijiy so'z" atamaları deyarli sinonim hisoblanadi (Krisin L.P., 1968). A.I. Melnikova "anglisizm" atamasidan tor ma'noda foydalanishni tavsiya etadi. Uning fikricha, o'quv adabiyotlarida faqat yangi inglizcha lug'at birliklari anglisizm deb hisoblanishi kerak. Lotinchadan, frantsuzchadan yoki arabchadan kirib kelgan, lekin ingliz tili orqali yangi ma'no olgan va shu ma'noda boshqa tillarga, jumladan, rus tiliga tarqalgan so'zlarni anglisizm deb atash to'g'ri emas (masalan: anglosakson, globalizatsiya, byudjet, kongress, logarifm, penitsillin, stenografiya va boshqalar). Zamonaviy tilshunoslikda o'zlashma so'zlarning rivojlanish bosqichlari quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1) Keng qo'llanilish bosqichi. Ushbu bosqichda ko'pgina yangi inglizcha so'zlar tez o'zlashtirilib, faol ishlatila boshlaydi. Masalan, geymer (gamer) so'zi hozirda o'zbek tilida keng ishlatiladi.

2) Leksik moslashuv va yangi so'zlarning keng tarqalishi. Ba'zi inglizcha atamalar o'zbek yoki rus tilida butunlay o'zlashib ketadi, masalan, buffer – buferizatsiya, format – formatlash, scanner – skanerlash.

3) Semantik o'zgarishlar va polysemiya (ko'p ma'nolilik) jarayoni. Ba'zi inglizcha so'zlar o'zbek tiliga o'zlashganda yangi ma'no oladi. Masalan, "trafik" so'zi dastlab internet ma'lumotlar oqimini bildirgan bo'lsa, hozirda "yo'l harakati" ma'nosida ham ishlatilmoqda.

4) Terminlarning umumlashuvi va ommalashuvi. Ba'zi so'zlar tor doiradagi termin sifatida boshlangan bo'lsa ham, keyinchalik umumiy lug'at tarkibiga kiradi.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Masalan, "modem" dastlab faqat kompyuter terminologiyasiga oid bo'lgan bo'lsa, hozirda hamma tomonidan yaxshi tushuniladi.

5) Inglizcha so'zlarning kengaytirilgan semantik diapazoni.

Inglizcha so'zlar o'zbek tilida yangi va kengroq ma'no kasb eta boshlaydi. Masalan, "fayl" so'zi dastlab faqat kompyuterga oid bo'lsa, endilikda hujjatlarni ham ifodalash uchun ishlatilmoqda. L.L. Nelubin o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, lingvistik tipologiya fonologik, fonetik, morfologik, sintaktik va leksik darajalarga ajratiladi. A.I. Melnikova inglizcha o'zlashmalarni "internatsionalizm" deb atashni tavsiya etadi, chunki ba'zi so'zlar turli tillarga bir vaqtda kirib kelishi mumkin. Boshqa tomondan, V.M. Aristova o'z doktorlik dissertatsiyasida "anglisizm" atamasini kengroq tushunchada qo'llaydi. Aristova ta'kidlaganidek, "anglisizm" lingvistik tushuncha bo'lib, ingliz tilining turli variantlaridan (amerikanacha, avstraliyalik, hindcha) kelgan so'zlarni ham o'z ichiga oladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, so'z o'zlashtirish hodisasi garchi faqatgina o'zbek olimlarining emas, balki uzoq yillar davomida jahon tilshunoslarining ham tadqiqot ishlarining obyekt bo'lib kelayotgan bo'lsa-da, tez sur'atlarda rivojlanayotgan axborot almashinuvi asrida boshqa tillardan so'z olish o'z dolzarbligini yo'qotmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zlashma so'z hamda anglisizm atamalarini bir-biridan farqlash uchun esa, ma'lum bir elementlarni hisobga olgan holda o'zlashtirilgan so'zni tahlil qilish lozim. Jumladan, o'zlashma so'zlarning ma'lum bir tilga o'rnashib bo'lgandan keyin yuz beradigan lingvistik jarayonlar va ular semantikasidagi o'zgarishlar ayniqsa, zamon bilan hamnafas ulg'ayayotgan yoshlar nutqida ularni ishlatilish kabi jihatlarini o'rganish kelajakdagi ilmiy tadqiqot ishlari uchun mavzu bo'lib xizmat qilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haspelmath, M. (2009). Loanword Typology: Steps Toward a Systematic Cross-Linguistic Study of Lexical Borrowability. *Language Typology and Universals*, 62(1), 35-46.
2. Nomozova M. A. The usage of English Borrowings in Uzbek Language, *Miasto Przyszłości Kielce* 2022.
3. Zokirova, S. M., & Topvoldiyeva, Z. R. (2020). About borrowings in the Uzbek lexicon. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84), 701-705.
4. Mokhidil Sharipova. (2024). Figurative and Onomatopoeic Expressions in English and Uzbek and their Translation Problems. *Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 2(10), 436-440. <https://doi.org/10.5281/>
5. [https://www.researchgate.net/publication/360902290\\_An\\_Analysis\\_on\\_Speech\\_Styles\\_Used\\_by\\_English\\_Lecturers](https://www.researchgate.net/publication/360902290_An_Analysis_on_Speech_Styles_Used_by_English_Lecturers)